https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Yusupova E'tibor Samariddin qizi
O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti
2-bosqich magistranti
yusupovaetibor166@gmail.com

AUTIZM SINDROMI HAQIDA JAMOATCHILIK FIKRINI SHAKILLANTIRISHDA MEDIANING TA'SIRI

Annotatsiya: Tadqiqotda ASB mavzusida aholining yetarli darajada xabardor emasligi, ommaviy axborot vositalarida dramatizatsiya va soddalashtirilgan yondashuvlarning ustunligi natijasida ASBli bolalar va ularning oilalariga nisbatan jamiyatda uyat, chetlashuv va inkor etish holatlari yuzaga kelayotgani muhim ijtimoiy muammo sifatida tahlil qilinadi. Shuningdek, autizm haqida to'g'ri va empatik axborot yetishmasligi erta tashxis va erta reabilitatsiya imkoniyatlarining cheklanishiga olib kelayotgani masalasi ham alohida e'tibor markazida bo'ladi. Tadqiqotdagi har bir fakt o'tkazilgan ijtimoiy so'rovnomaga asoslangan holda keltirilgan.

Kalit so'zlar: autizm, media, stereotip, reabilitatsiya, inklyuziv madaniyat, respondent.

ВЛИЯНИЕ СМИ НА ФОРМИРОВАНИЕ ОБЩЕСТВЕННОГО МНЕНИЯ О СИНДРОМЕ АУТИЗМА

Аннотация: В исследовании анализируется, что население недостаточно информировано о расстройствах аутистического спектра (РАС), а в средствах массовой информации преобладают драматизация и упрощённые подходы. Это приводит к возникновению чувства стыда, отчуждения и отрицания в отношении детей с РАС и их семей, что рассматривается как важная социальная проблема. Кроме того, недостаток достоверной и эмпатичной информации об аутизме ограничивает возможности ранней диагностики и ранней реабилитации, что также выделено как отдельный аспект

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

исследования. Все факты в исследовании представлены на основе проведённого социологического опроса.

Ключевые слова: аутизм, медиа, стереотип, реабилитация, инклюзивная культура, респонденты.

THE INFLUENCE OF MEDIA IN SHAPING PUBLIC OPINION ABOUT AUTISM SYNDROME

Abstract: The study analyzes that the general public has insufficient awareness of autism spectrum disorders (ASD), and mass media often rely on dramatization and oversimplified approaches. This has led to feelings of shame, social exclusion, and denial towards children with ASD and their families, which is considered a significant social issue. Furthermore, the lack of accurate and empathetic information about autism limits the possibilities for early diagnosis and early intervention, which is also highlighted as a key focus of the study. All facts presented in the research are based on a conducted social survey.

Keywords: autism, media, stereotype, rehabilitation, inclusive culture, respondents.

Kirish. Tadqiqot doirasida autizm spektr buzilishining (ASB) ommaviy axborot vositalarida yoritilishi bilan bog‘liq bir qator muhim masalalar o‘rganiladi. Jumladan, ASBning tibbiy va ilmiy nuqtayi nazardan kasallik emas, balki sindrom ekanligi, unga chalinilmasligi, balki shaxs ASB bilan tug‘ilishi, uni to‘liq davolab bo‘lmasligi, biroq erta tashxis va tizimli reabilitatsiya hamda korreksiya orqali ijtimoiy moslashuv darajasini oshirish mumkinligi haqidagi ilmiy asoslangan qarashlarning OAV tomonidan ko‘pincha noto‘g‘ri talqin qilinishi **asosiy muammo sifatida ko‘riladi**. O‘zbekiston OAVsida autizm mavzusiga yondashuv tizimli ravishda ilk bor tahlil qilinganligi tadqiqotning **ilmiy yangiligi.** Ilmiy izlanish davomida sotsiologik **so‘rovnoma va ilmiy-nazariy tahlil metodlaridan foydalanildi.**

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Autistik spektri buzilishi (ASB) bugungi kunda nafaqat tibbiy, balki muhim ijtimoiy muammo sifatida ham e'tirof etilmoqda. JST ma'lumotlariga ko'ra, har 54 boladan bittasida autizm spektr buzilishi aniqlanadi.[1] "Autizm (grekcha «autos» – «o'zim» degan so'z) – bu ruhiyatning o'ziga xos holati bo'lib, bemor tashqi olam, atrofdagilar bilan muloqot qilishni istamaydi. U yolg'izlikni yoqtiradi. Yana bir xil xatti-harakat va shunday so'zlarni takrorlaydi. Autizm tashxisli bola o'z olamida yashaydi. Fikrlashi boshqalarnikiga o'xshamaydi.[2]

BMT Bosh Assambleyasi tomonidan autizmdan xabardorlikni yanada oshirish, maqsadida 2007-yil 18-dekabr kuni 2-aprelni bir ovozdan Butunjahon autizmdan xabardorlik kuni deb e'lon qilgan va bu kunda 2008-yildan buyon an'anaviy tarzda keng miqiyosda amaliy ishlar olib borilmoqda.[3] Butunjahon autizmdan xabardorlik kuni turli manfaatdor tomonlar, jumladan, hukumat, tibbiyot xodimlari, pedagoglar, tadqiqotchilar, inson huquqlari bo'yicha tashkilotlar o'rtasidagi muloqot va hamkorlikni yo'lga qo'ygan holda, ASBga chalingan fuqarolar, oila a'zolari turmush darajasini yaxshilash uchun qo'llab-quvvatlash bo'yicha samarali siyosatlar, strategiya va yordam xizmatlarini ishlab chiqish va amalga oshirishni yengillashtirishga qaratilgan.[4]

Asosiy qism. Mazkur masalaning jamiyat uchun naqadar dolzarb ekanligini aniqlash maqsadida autistik spektri buzilishi haqida aholi xabardorligini o'rganishga qaratilgan so'rovnoma o'tkazildi. Tadqiqotda jami 101 nafar respondent ishtirok etdi. Ishtirokchilarning 80,2 foizini ayollar, 19,2 foizini erkaklar tashkil etdi. So'rovnoma Telegram ijtimoiy tarmog'i orqali onlayn shaklda o'tkazildi. Respondentlarning katta qismini farzand tarbiyalayotgan yosh ota-onalar tashkil etgani tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyatini oshiradi, chunki autizmni erta aniqlash aynan ushbu toifa uchun muhim hisoblanadi.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Yosh toifalari bo‘yicha respondentlar quyidagicha taqsimlandi:

Yosh toifasi	Foiz (%)
18 yoshgacha	9,9
18–30 yosh	52,5
31–50 yosh	31,7
51yoshdan yuqori	5,9

“Autizm haqida eshitganmisiz?” degan savolga respondentlarning 73,3 foizi ijobiy javob bergan bo‘lsa, 26,7 foizi bu tushuncha bilan tanish emasligini bildirgan. Biroq “Autistik spektri buzilishi nima ekanligini bilasizmi?” savoliga berilgan javoblar xabardorlik darajasining yetarli emasligini ko‘rsatdi: respondentlarning atigi 12,9 foizi autizm mohiyatini to‘liq tushunishini bildirgan, 37,6 foizi qisman tushunishini, 25,7 foizi eshitganini, ammo mazmunini anglamasligini, 23,8 foizi esa umuman bilmasligini qayd etgan.

Ommaviy axborot vositalarining roli bo‘yicha berilgan savollar ham muhim natijalarni ko‘rsatdi. Respondentlarning 55,4 foizi autizm haqidagi ma’lumotlarni asosan internet va ijtimoiy tarmoqlardan olishini bildirgan bo‘lsa, 35,6 foizi ommaviy axborot vositalarini axborot manbai sifatida ko‘rsatgan. Shu bilan birga, respondentlarning 55,4 foizi OAV autizm haqida yetarli ma’lumot bera olmayotganini ta’kidlagan. Bu esa ommaviy axborot vositalarida autizm mavzusini yanada tizimli va ilmiy asosda yoritish zarurligini ko‘rsatadi.

So‘rovnoma natijalari autistik spektri buzilishi haqida jamiyatda xabardorlik darajasi yetarli emasligini, noto‘g‘ri stereotiplar va noaniq tasavvurlar keng tarqalganini yaqqol namoyon etdi. O‘zbek ota-onalari orasida 2-3 yoshda ham biror so‘z ayta olmaydigan bolaga nisbatan befarqlik kuzatiladi, kattalar tomonidan “bobosi ham 5 yoshida gapirgan”, “hamma bola har xil bo‘ladi”, “o‘zi ko‘p multfilm ko‘radi”, “yolg‘iz katta bo‘lyapti, shunga kamgap, unga uka obkelish kerak”, “onasi yaxshi qaramaydi, telefonga yopishib qolgan” kabi bahonalar tez-tez ishlatiladi.[5] Bunday qarash ham stereotiplarning mintalitetga bog‘liq ko‘rinishlaridir. Mazkur holat autizm haqida aholi xabardorligini oshirish, ayniqsa

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

ota-onalar va yosh oilalar o‘rtasida tizimli axborot-targ‘ibot ishlarini kuchaytirish zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Aholi xabardorligining pastligi oqibatlari (stereotiplar tahlili asosida)

Autizmga ega bolalarning oilalari ko‘pincha jamiyatdagi stereotip va tushunmovchiliklarga duch keladilar. Autizm haqida noto‘g‘ri qarashlar, uni “kasallik” sifatida noto‘g‘ri talqin qilish hamda oilani ayblash holatlari keng tarqalgan.[6] Autizm kasallik emas, balki ruhiy holat hisoblanadi. [7] Bu esa ota-onalarning psixologik holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi va bolani ijtimoiy muhitdan yiroqlashtirishga olib keladi. Shu sababli, keng jamoatchilikni xabardor qilish, pedagoglar va tibbiyot xodimlari uchun maxsus o‘quv dasturlarini yo‘lga qo‘yish**, OAV orqali autizmga oid ijobiy targ‘ibotni kuchaytirish muhim** hisoblanadi.

Mazkur holatni chuqurroq o‘rganish maqsadida autizm sindromiga ega bolalarning ota-onalari ishtirokida maxsus so‘rovnoma o‘tkazildi.

So‘rovnoma autizm sindromli bolalarni tarbiyalayotgan ota-onalar jamlangan 1065 nafar a’zoga ega onlayn guruhda tashkil etildi. Biroq bevosita tashxisli farzandi haqida ochiq gapirish ota-onalar uchun psixologik jihatdan murakkab bo‘lgani sababli, so‘rovnomada ishtirok etishga atigi 15 nafar respondent rozilik bildirdi. Ishtirokchilarning 100 foizi ayollardan iborat bo‘ldi. Mazkur holatning o‘zi ham autizm bilan bog‘liq muammolarning oilaviy va gender jihatlarini yaqqol namoyon etadi.

Jamiyatda autizmning noto‘g‘ri talqin qilinishi keng tarqalganligi ilmiy va ommaviy manbalarda ham qayd etilgan. Defektolog Shaxnoza Imomxo‘jayeva ta’rifiga ko‘ra, autizm — bu ruhiyatning o‘ziga xos holati bo‘lib, unda shaxsning tashqi muhit bilan muloqoti cheklangan, xatti-harakatlarida takroriylik va hissiy kechinmalar ustun bo‘ladi. Shunga qaramay, o‘zbek jamiyatida autizm ko‘pincha aqliy zaiflik, ruhiy kasallik yoki tarbiya bilan bog‘liq muammo sifatida talqin qilinadi, bu esa ilmiy asoslangan yondashuvdan yiroqdir.[8]

So‘rovnoma natijalari jamiyatda mavjud salbiy stereotiplarning oilaviy munosabatlarga ham bevosita ta’sir ko‘rsatayotganini aniqladi. “O‘zbek oilalarida

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

autizm tashxisli bolalarning dunyoga kelishida eng ko‘p kim aybdor deb hisoblanadi?” degan savolga respondentlarning 46,7 foizi qaynonalar kelinlarini ayblash holati keng tarqalganini, 33,3 foizi erlar ayollarini ayblashini, 20 foizi esa kelinlar qaynonalarni ayblashini bildirgan. Bu ko‘rsatkichlar autizm tashxisi ko‘pincha ayollarning aybi sifatida ko‘rilishini va gender tengsizlik muammosini kuchaytirayotganini ko‘rsatadi.

“Atrofdagilarning autizmli bolalarga nisbatan qanday stereotipik qarashlarini kuzatgansiz?” degan savolga javoban respondentlarning 66,6 foizi diniy mazmundagi stereotiplar eng ko‘p uchrashini qayd etgan. Jumladan, “bu farzand ota-onaning gunohi sababli shunday bo‘lgan”, “domlaga o‘qitish kerak”, “dam soldirish lozim” kabi qarashlar jamiyatda keng tarqalganligi ta’kidlangan. Respondentlarning 33,3 foizi esa ota-onalarni bolani noto‘g‘ri tarbiyalaganlikda yoki ortiqcha erkalatganlikda ayblash holatlari ko‘p uchrashini bildirgan.

So‘rovnoma davomida ota-onalarning farzandi tashxisini yashirishiga sabab bo‘layotgan ijtimoiy omillar ham aniqlandi. “Nima sababdan aksariyat ota-onalar farzandining autizmga chalinganligini yashirishga harakat qiladi?” degan savolga respondentlarning 40 foizi jamiyat tomonidan chetlatilish va “barmoq bilan ko‘rsatish”dan qo‘rqishni asosiy sabab sifatida ko‘rsatgan. 33,3 foizi bu holat farzandining kelajagiga salbiy ta’sir ko‘rsatishidan xavotirlanish bilan bog‘liq ekanini bildirgan. 20 foizi odamlarning gap-so‘zi va masxarasidan uyat hissi sabab bo‘layotganini, 6,7 foizi esa atrofdagilarning rahm-shafqat bilan qarashini istamasligini qayd etgan.

Mazkur stereotiplar autistik spektri buzilishiga ega bolalar bo‘yicha statistik ma’lumotlarning to‘g‘ri shakllanishiga ham to‘sqinlik qiladi.[9] O‘zbekistonda autizmga chalinganlar ro‘yxatga olinmaydi va statistika yuritilmaydi. Chunki ko‘pchilik ota-onalar autist farzandini jamiyatdan ajratib qo‘yishga, bog‘cha yoki maktabga qo‘ymaslikka urinadi. [10] Ota-onalar tashxisni yashirib, tegishli tibbiy va ta’lim muassasalariga murojaat qilmaganda, davlat real ehtiyojga ega oilalar

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

haqida to‘liq ma’lumotga ega bo‘la olmaydi. Natijada reabilitatsiya, ta’lim va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash dasturlari yetarli darajada ishlab chiqilmaydi.

Xabardorlikni oshirishning ahamiyati

Aholi, xususan ota-onalar, autistik spektri buzilishi (ASB) haqida yetarlicha ma’lumotga ega bo‘lsa, bir qancha ijtimoiy va tibbiy jihatlarda ijobiy natijalarga erishish mumkin. Birinchi o‘rinda, autizm haqida mavjud salbiy stereotiplar kamayadi, erta tashxis qo‘yish imkoniyati oshadi, va autizmli bolalarning iqtidorli jihatlari ochiladi. Shu bilan birga, ularni **sport**, **san’at** yoki **Paraolimpiya**larga jalb qilish imkoniyati yuzaga keladi.

Xabardorlikni oshirishning yana bir muhim jihati — ota-onalarda mavjud reabilitatsiya va davolash usullarini to‘g‘ri baholash qobiliyatini rivojlantirishdir.

Xulosa va takliflar

Nazariy ahamiyati: Mazkur tadqiqot natijalari autistik spektri buzilishi (ASB) mavzusini ommaviy axborot vositalarida yoritishga oid ilmiy asoslangan nazariy yondashuvni takomillashtirishga xizmat qiladi.

Amaliy ahamiyat: Tadqiqot natijalari quyidagi amaliy jihatlar bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishga asos bo‘ladi:

1. ASBga oid aniq statistik bazani shakllantirish — autizmli bolalar va oilalarning mavjudligini to‘liq aks ettirish orqali davlat va nodavlat tashkilotlar faoliyatini rejalashtirishga imkon yaratadi.

2. Nodavlat tashkilotlar, ijtimoiy xizmatlar va reabilitatsiya markazlari faoliyatini yo‘naltirish — aholida xabardorlik oshgani sayin reabilitatsiya va ta’limiy xizmatlaridan foydalanishini ta’minlash orqali ASB haqida aniq statistik ma’lumot shakillantirish.

3. Jamoatchilik fikrida empatik va real yondashuvni shakllantirish — stereotiplar va stigmalarning kamayishiga yordam beradi.

4. Ota-onalar xabardorligini oshirish — erta tashxis, to‘g‘ri reabilitatsiya va inklyuziv ta’lim muhimligini tushuntiradi.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

5. Davolash va reabilitatsiya usullarini tahlil qilish imkoniyati — biznesga aylangan, nojo‘ya ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan metodlardan himoyalanish imkonini yaratadi.

6. Mutaxassislar ishtirokida media kontent yaratish — psixolog, logoped, nevrolog va defektologlarning fikrlarini jamiyatga yetkazish.

7. Autizmli bolalar huquqlari va inklyuziv madaniyatni targ‘ib qilish — jamiyatda bag‘rikenglik va empatik yondashuvni shakllantirish.

Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy platformalarda autizmga oid kontentni tizimli, ilmiy asosli va empatik yondashuv bilan tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa autizm bilan bog‘liq jamiyatdagi stereotiplarni bartaraf etish va reabilitatsiya hamda inklyuziv ta’lim tizimini takomillashtirishga bevosita xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Vaqt.uz. (2025, 29-iyul). O‘zbekistonda autizm: tan olinmaydigan haqiqat, «aniqlab bo‘lmaydigan» statistika va jamiyatdagi stigma. https://vaqt.uz/uz/news/ozbekistonda-autizm-tan-olinmaydigan-haqiqat-aniqlab-bolmaydigan-statistika-va-jamiyatdagi-stigma-5823

2. Xakimova, Z. (2023). Autizm sindromi va uning turlari. Open Science.

3. **UzA.** (2025, 23-dekabr). *Butunjahon autizmdan xabardorlik kuni*. https://uza.uz/oz/posts/butunjahon-autizmdan-xabardorlik-kuni_469852

4. Muzrobov, D. (2023, 4-aprel). [Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi yetakchi mutaxassisi maqolasi]. O‘zbekiston Milliy axborot agentligi.

5. Elamanova, D. (2023, 25 iyun). Autizmning ilk belgilari: ota-onalar nimalarni bilishi kerak? Xabar.uz. https://xabar.uz/uz/tahlil/autizmning-ilk-belgilari-ota-onalar-nimalarni?ysclid=mjiw7debsl827991026

6. Amonov, R. T., & Abdullayeva, Z. X. (2020). Autizmli bolalarni erta aniqlash va ijtimoiylashtirish muammolari. Tibbiyot va ta’lim, (1), 56–61.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

7. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi huzuridagi O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi. (2022). Autizm — kasallikmi yoki ruhiy holat? (O‘quv qo‘llanma). Toshkent.

8. Kun.uz. (2018, 27-dekabr). Autizm kasallikmi yo ruhiy holat? G‘ayritabiiy bolalar haqida faktlar. https://kun.uz/news/2018/12/27/autizm-kasallikmi-yo-ruhiy-holat-gayritabiiy-bolalar-haqida-faktlar

9. Daryo.uz. (2021, 28-aprel). “Nahotki boricha qabul qilish shunchalar imkonsiz?”: Autizmga chalingan bolani tarbiyalayotgan ota ta’limdagi diskriminatsiya, o‘zbekchilik va NNT ochish orzusi haqida. https://daryo.uz/2021/04/28/nahotki-boricha-qabul-qilish-shunchalar-imkonsiz-autizmga-chalingan-bolani-tarbiyalayotgan-ota-talimdagi-diskriminatsiya-ozbekchilik-va-nnt-ochish-orzusi-haqida/

10. Ma’rifat gazetasida “Autizm kasallik emas” nomli maqoladan 2025-yil 12-fevral soni.